



**1-masala.** Haqiqiy uzunligi bilan berilgan  $[AB]$  to'g'ri chiziq kesmasining yetishmaydigan proyeksiyasi topilsin.



24 – chizma.




25 – chizma.

Frontal proyeksiyada  $[AB]$ -to'g'ri chiziq kesmaning haqiqiy uzunligi, to'g'ri burchakli uchburchak usulidan foydalanib aniqlangan.(24-chizma). Uning  $[A B ]$ -kesma 1-katetga ,  $[B B_0]$ -kesma 2-katetga, ya'ni  $Y$ -o'lchamga va  $|A B_0|$ haqiqiy uzunlikka teng. Gorizontaal proyeksiyada  $B$  -nuqtani topish kerak bo'ladi.


**Masala quyidagi bosqichlarda yechiladi (25-chizma).**

1.  $A$  -nuqta orqali  $[ox]$ -o'qqa parallel  $a_1$  chiziq chizib olamiz.  $A \in a_1 [ox]$ .
2.  $B$  -nuqtadan  $[ox]$ -o'qqa perpendikulyar tushgan bog'lash chiziq,  $a_1$  chiziqni kesib  $1_1$ -nuqtani hosil qiladi.  $B B_0 = a_1 = 1_1$ .
3.  $1_1$ -nuqtadan pastga (ikkinchi yechim yuqoriga) uzunligi  $Y = |B B_0|$  ga teng o'lcham o'lchab  $B$  -nuqtani belgilaymiz.
4.  $A$  va  $B$  nuqtalarni tutashtirib  $[AB]$ -kesmaning yetishmaydigan  $[A B ]$ -gorizontaal proyeksiyasiga ega bo'lamiz. Javob  $[A B ]$ . [8]

**2-masala.** I-to'g'ri chiziqda A nuqtadan boshlab uzunligi 30mm bo'lgan [AK]-kesma o'lchab qoying (26, 27-chizmalar).



26 – chizma.



27 – chizma.

I-to'g'ri chiziq umumiy vaziyatda berilgan. A nuqta I-to'g'ri chiziqqa tegishli  $A \in l$ .

**Masala quyidagi bosqichlarda yechiladi** (28, 29 – chizmalar).

- I-to'g'ri chiziqda ixtiyoriy B nuqta tanlab olamiz  $B \in l$ .
- Hosil bo'lgan [AB]-kesmani haqiqiy uzunligini to'g'ri burchakli uchburchak usuldan foydalanib aniqlaymiz  $|AB| = |A B_0|$ .
- Haqiqiy uzunlikka A nuqtadan boshlab uzunligi 30mm teng bo'lgan [AK]-kesma o'lchab qo'yamiz  $|A K_0| = 30\text{mm}$ .
- $K_0$ -nuqtadan [A B]ga perpendikulyar chizib K nuqtani, so'ng undan [ox]-o'qqa perpendikulyar bog'lash chiziq chizib, uni [A B] bilan kesishgan K nuqtani belgilaymiz. Javob:  $l \in |AK| = |A K_0| = 30\text{mm}$ .

